

PAPER

MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA IRRIGATSIYA SOHASIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR

Sattorov Asilbek Adhamjon o‘g‘li^{1,*} and Qambarov Oybek Olimjonovich¹

¹Dang‘ara tuman 3-son politexnikumi Tarix fan o‘qituvchisi and ²Dang‘ara tuman 3-son politexnikumi O‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari

* Asilbek@gmail.com

Abstract

Mazkur maqolada O‘zbekistonning irrigatsiya sohasidagi yangi islohotlar va suv xo‘jaligida amalga oshirilgan ishlar, sohani rivojlantirish istiqbollari haqida so‘z yuritiladi. Bugungi kunda mamlakatning suv resurslarini samarali boshqarish hamda suvdan oqilona foydalanish davlat siyosat darajasiga ko‘tarildi. Xususan: 2020–yil 10–iyuldagi Prezident farmoni bilan tasdiqlangan **”O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030 yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasi”** suv xo‘jaligini modernizatsiya qilish, suvni tejash texnologiyalarini joriy etish va soha xodimlarining kasbiy ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgan strategik yo‘nalishlarni belgilab berdi. Ushbu maqolada shuningdek, Prezident farmonining ahamiyati, suvni tejash texnologiyalari va dual ta‘lim tizimining ahamiyati haqida batafsil bayon etiladi. Kelajakda suv resurslarining kamayishi ehtimoli va bu muammoning yechimi bo‘yicha amalga oshirilayotgan strategiyalar ko‘rib chiqiladi.

Key words: Irrigatsiya, suv xo‘jaligi vazirligi, Prezident farmoni, suvni tejash texnologiyalari, dual ta‘lim, konsepsiya, innovatsion texnologiyalar, kasbiy ko‘nikmalar, suvning kamayishi, ekologik xavf.

Kirish

O‘zbekistonning irrigatsiya sohasida amalga oshirilgan islohotlar mamlakatning qishloq xo‘jaligi uchun muhim ahamiyatga ega. Suv resurslarining samarali boshqarilishi va ekologik barqarorlikni ta‘minlash bo‘yicha qilinayotgan ishlar ayniqsa Markaziy Osiyoda O‘zbekistonning strategik ahamiyatini oshiradi. Mustaqillik yillarida ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar O‘zbekistonni suvni tejash va samarali foydalanish bo‘yicha yangi bosqichga olib chiqdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2020–yil 10–iyuldagi farmoni bilan tasdiqlangan **”O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030 yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasi”** sohani modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish va soha xodimlarining malakasini oshirishni maqsad qilgan. Suv resurslarining kamayishi va global iqlim o‘zgarishlari kelajakda suv ta‘minotiga tahdid solishi mumkin, shu bois bu masala dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Prezident farmoni va **”O‘zbekiston Respublikasi suv**

xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030 yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasi” Prezidentimizning ushbu farmoni suv resurslarini samarali boshqarish va suvni tejashga qaratilgan bir qator chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Konsepsiyaning asosiy maqsadi suvni tejash texnologiyalarini keng joriy etish, irrigatsiya tizimini modernizatsiya qilish va suv resurslaridan oqilona foydalanishdir.

Bu hujjatning qabul qilinishi bilan suv xo‘jaligi tizimining raqamlashtirilishi, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ekologik barqarorlikni ta‘minlashga qaratilgan strategiyalar belgilab olindi. O‘zbekistonning irrigatsiya tizimi, ya‘ni qishloq xo‘jaligi uchun eng muhim soha bo‘lib, 2019–yilga kelib, O‘zbekistonning ikki million gektar maydonida sug‘orish ishlari amalga oshirilmoqda. 2030–yilga kelib esa, ushbu maydonni 2,5 million gektarga oshirish rejalashtirilgan.

Konsepsiyani ustuvor yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

- suv resurslarini prognozlashtirish, ularning hisobini yuritish va ma'lumotlar bazasini shakllantirish tizimini takomillashtirish hamda shaffofligini ta'minlash;
- suv xo'jaligi obyektlarini (ichimlik va oqova suv tizimidan tashqari) modernizatsiya qilish va rivojlantirish, yirik suv xo'jaligi obyektlarini boshqarishni raqamli texnologiyalar asosida avtomatlashtirish, elektr energiyasi va boshqa resurslarni tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni keng joriy qilish, sohaga xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish hamda ajratilayotgan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanishni ta'minlash;
- suv omborlari, sel-suv omborlari va boshqa suv xo'jaligi obyektlarining xavfsizligini hamda ishonchli ishlashini ta'minlash;
- suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish, suvdan foydalanish va suv iste'moli hisobini yuritishda "Smart Water" ("Aqlli suv") va shu kabi raqamli texnologiyalarni joriy qilish;
- qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda suv tejovchi sug'orish texnologiyalarining joriy qilinishini yanada kengaytirish va davlat tomonidan rag'batlantirib borish, ushbu sohaga xorijiy investitsiyalar va grantlarni jalb qilish;
- sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va barqarorligini ta'minlash, yerlarning unumdorligini oshirishga ko'maklashish, tuproqning sho'rlanish darajasini pasaytirish va uning oldini olish bo'yicha samarali texnologiyalarni qo'llash;
- suv resurslarini integratsiyalashgan holda boshqarish tamoyillarini joriy qilish, aholini suv bilan kafolatli ta'minlash, iqtisodiyot tarmoqlariga suvni barqaror yetkazib berish, suvning sifatini yaxshilash va atrof-muhitning ekologik muvozanatini saqlash;
- transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish masalalari bo'yicha davlatlararo munosabatlarni rivojlantirish, Markaziy Osiyo mamlakatlari manfaatlarini o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydigan suv resurslarini birgalikda boshqarishning o'zaro maqbul mexanizmlarini va suvdan samarali foydalanish dasturlarini ishlab chiqish hamda ilgari surish;
- suv xo'jaligi sohasi uchun malakali kadrlarni tayyorlash, xodimlarning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish sohalari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni rivojlantirish hamda ilm-fan yutuqlari va nou-avturalarni ishlab chiqarishga joriy qilish.

Mazkur hujjatda 2030 yilga qadar quyidagi ko'rsatkichlarga erishish ham nazarda tutilgan:

- suv ta'minoti past darajada bo'lgan sug'oriladigan yer maydonlarini 560 ming gektardan 190 ming gektargacha kamaytirish;
- sho'rlangan sug'oriladigan yer maydonlarini 226 ming gektarga kamaytirish;
- Suv xo'jaligi vazirligi tizimidagi nasos stansiyalarining yillik elektr energiyasi iste'molini 25 foizga kamaytirish;
- barcha irrigatsiya tizimi obyektlariga "Smart Water" ("Aqlli suv") suv o'lchash va nazorat qilish qurilmalari o'rnatilib, suv hisobini yuritishda raqamli texnologiyalarni joriy etish;
- 100 ta yirik suv xo'jaligi obyektlarida suvni boshqarish jarayonlarini avtomatlashtirish;
- Qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orishda suvni tejaydigan texnologiyalar bilan qamrab olingan yerlarning umumiy maydonini 2 million gektargacha, shu jumladan, tomchilab sug'orish texnologiyasini 600 ming gektargacha yetkazish;



Рис. 1. Drip irrigatsiya tizimi

Suvni tejash texnologiyalarining joriy etilishi:

Suvni tejash texnologiyalari irrigatsiya sohasida muhim o'rin tutadi. Bunda yangi texnologiyalar yordamida suv resurslarini samarali boshqarish, ekinlarni sug'orishda suvni tejash va yuqori darajada samarali texnikalar qo'llanilmoqda. Masalan, drip irrigatsiya tizimi, avtomatlashtirilgan sug'orish tizimlari va suvsiz qishloq xo'jaligi texnologiyalari yordamida suvni tejash va unumdorlikni oshirishga erishilmoqda. Suvni tejash texnologiyalarini joriy etishda, 2020–2025 yillarda suvni tejashga qaratilgan 500 mln. AQSh dollari miqdoridagi investitsiyalarni jalb etish ko'zda tutilgan. Shu bilan birga, 2022–yilda 150,000 gektar maydonda drip irrigatsiya tizimi o'rnatildi va bu texnologiya orqali suvni tejashda 30 foiz ga yaqin samaradorlikka erishildi.(1-rasm)

Ushbu tizimning joriy etilishi qishloq xo'jaligida suv sarfining qisqartirilishiga hamda suv yetib bormagan hududlarning o'zlashtirilishiga erishildi. Drip irrigatsiya tizimi ish unumdorligini yanada oshirdi. Xususan ushbu mamlakatimizda fermer xo'jaligi yer maydonlarining meliorativ xolatini yaxshilashga yordam berdi.

O'zbekistondagi cho'l hududlarda suv tanqisligining oldini olish uchun yangi texnologiyalar joriy etilmoqda. Tomchilatib sug'orish va disket usulida sug'orish texnologiyalari so'nggi yillarda qishloq xo'jaligida suv resurslarini tejash va hosildorlikni oshirish uchun samarali usullar sifatida keng qo'llanilmoqda.

Tomchilab sug'orishda an'anaviy sug'orish usullariga nisbatan 30–50 foiz suvni tejash imkonini beradi. Suv faqat zarur bo'lgan joyga yetkazilgani sababli bug'lanish va infiltratsiya yo'qotishlari kamayadi. Ushbu texnologiyadan tashqari Yomg'irlatib su'orish texnologiyalari ham joriy etilmoqda. Bu texnologiya ish samaradorligini yanada oshiradi. Xususan: An'anaviy kanal sug'orishga qaraganda suvni 20–30 foiz tejash imkonini beradi. Suv tomchilari to'g'ridan-to'g'ri o'simlik barglari va ildizlari sohasiga teng taqsimlanadi.(2-rasm)

Metodologiya

Tanqidiy fikrlash va mustaqil fikrlashning o'zaro bog'liqligi hisoblanib. Tanqidiy fikrlash – bu mavjud ma'lumotni shubha ostiga olish, uni tahlil qilish, o'z fikrini asoslab berish, dalil keltirish va boshqa nuqtai nazarlarni tahlil qila olish qobiliyatidir. Mustaqil fikrlash esa insonning o'z tajribasiga, bilimiga va kuzatuvlariga tayangan holda yangicha, ijodiy fikr yuritish olishidir. Tanqidiy fikrlash orqali o'quvchi o'z fikrini asosli ravishda bildirishga, o'z qarorlarini qabul qilishga o'rganadi, bu esa bevosita mustaqil fikrlashning shakllanishiga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligi darslari orqali o'quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikr yuritish malakalari



Рис. 2. Ko'chma sprinkler sug'orish tizimi

shakllantiriladi. N.A.Ahmedova ta'kidlaganidek: "Boshlang'ich sinfda o'qish savodxonligi darslari orqali o'quvchilarda tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini uyg'otish – ularni hayotga tayyorlashning muhim bosqichidir." [2]

Suv xo'jaligi soha xodimlarining kasbiy ko'nikmalarini oshirish uchun dual ta'lim tizimi joriy etildi.

Suv xo'jaligi tizimini yanada rivojlantirish uchun malakali mutaxassislar zarur. Shuning uchun Prezident farmonida ta'lim tizimiga e'tibor qaratilgan. Dual ta'lim shaklida o'qitish tizimi joriy etilishi soha xodimlarining kasbiy ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi. Bu tizim orqali 2023-yilga kelib 300 dan ortiq mutaxassislar malaka oshirish kurslaridan o'tkazildi.

Shu bilan birga, yurtimizda suv xo'jaligi sohasida o'qituvchi va amaliyotchi mutaxassislarning ko'proq qayta tayyorlanishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2030-yilga kelib, ushbu tizim orqali 5000 dan ortiq yangi mutaxassis tayyorlash maqsad qilinmoqda. Misol uchun birgina Dang'ara 3- son politexnikumi tashabbusi bilan 200 dan ortiq suv xo'jaligi xodimlarini Dual ta'lim shaklida o'qishga qabul qilishga erishildi. Bu esa soha xodimlarining malakasini yanada oshirish hamda ishdan ajralmagan holda ta'lim olish imkonini yaratdi.

Xulosa

O'zbekistonning suv xo'jaligi tizimini rivojlantirish borasidagi islohotlar mamlakatning suv resurslarini samarali boshqarishga qaratilgan eng muhim qadamlardan biridir. Prezident farmoni va unga asoslangan konsepsiya suvni tejash texnologiyalarini keng joriy etish, soha xodimlarining malakasini oshirish va innovatsion yechimlarni taqdim etishda katta ahamiyat kasb etadi. Suvni tejash texnologiyalarining kengayishi va sohaga o'zgarishlarni kiritishda davom etishi istiqbollari mavjud. Suv resurslarining kamayishi va tabiiy ofatlarning ta'siri kelajakda suv xo'jaligini yanada samarali boshqarishni talab qiladi. Shu bois, O'zbekistonning suv xo'jaligi tizimi global iqlim o'zgarishlariga moslashish va barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun o'zgarishga tayyor bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. "O'zbekiston mustaqillikka erishish yo'lida". Toshkent: O'zbekiston, 1992.
2. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston strategiyasi". Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2021. O'zbekiston, 1992.

3. Qodirov A. "Suv xo'jaligini boshqarishning zamonaviy usullari". Toshkent: Fan va Texnologiya, 2018. O'zbekiston, 1992.
4. Ismoilov B. "O'zbekiston qishloq xo'jaligi va irrigatsiya tizimi". Toshkent: Sharq NMAK, 2015. O'zbekiston, 1992.
5. Bekmurodov M. "Orol dengizi va ekologik xavflar". Toshkent: Ilm Ziyo, 2019. O'zbekiston, 1992.
6. G'aniyev R. "Markaziy Osiyoda suv resurslarini boshqarish muammolari". Toshkent: Universitet, 2016.